

O'zbekiston  
Respublikasi byudjet  
tizimi byudjetlarining  
g'azna ijrosi  
qoidalariga  
8-ILOVA

2022 y. «26» yanvardagi Baxmal TTB va "HUDUDGAZ JIZZAX" GTF  
o'rtasida 65 499 720 so'm umumiy summaga tuzilgan 4/2- sonli shartnomaga  
TO'LOVLAR JADVALI

Bob \_\_\_\_\_ 73101

Shaxsiy g'azna hisobvaraqlar 1000 2286 0082 0470 7310 1054 001  
(so'mda)

2022 y. oylar nomi.	Bo'lim 7073	kichik bo'lim 054	Jami	Jami
	st:42 22 000			
Yanvar	24 499 860			24 499 860
Fevral	20 999 880			20 999 880
Mart	19 999 980			19 999 980
April				
May				
Iyun				
Iyul				
Avgust				
Sentyabr				
Oktyabr				
Noyabr				
Dekabr				
Jami yil bo'yicha	65 499 720			65 499 720

Jami 65 499 720 so'm (Oltmish besh million turt yuz to'qson to'qqiz ming yeti yuz yigirma, sum)

summa so'z bilan

Yuqoridagi ko'rsatilgan summadan 24 499 860 so'm yoki shartnomaning umumiy summasidan 100 % 2022 yil xar oyida to'lanishi lozim.

(\*) — byudjet tashkiloti, byudjet mablag'i oluvchi va BMJ mablag'i oluvchi tomonidan g'aznachilik bo'linmasiga ikki nusxada taqdim etiladi;

(\*\*) — bo'lim, kichik bo'lim va xarajat moddasi ko'rsatiladi;

(\*\*\*) — Yuqoridagi ko'rsatilgan summadan oyiga \_\_\_\_\_ % joriy oyning \_\_\_\_\_ sanasigacha har oyda oldindan to'lanishi lozim

(ushbu satr byudjet tashkiloti, byudjet mablag'i oluvchi va BMJ mablag'i oluvchi tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish, aloqa xizmatlari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan har oy doimiy ravishda tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish shartnomalari bo'yicha oldindan to'lovni amalga oshirish hollarida to'ldiriladi).

Buyurtmachi rahbari

M.O'.

Buyurtmachi  
bosh buxgalteri



(imzo)

(imzo)

F.A.Gapparov  
E.I.O.

A.U.Ganiyev  
E.I.O.

G'aznachilik bo'linmasining  
xodimi qabul qildi \_\_\_\_\_  
(imzo)

2022- y. « \_\_\_ » \_\_\_\_\_

Buyurtmachi  
xodimi qabul qildi \_\_\_\_\_  
(imzo)

2022- y. « \_\_\_ » \_\_\_\_\_

### ***Tabiiy gazni ulurji istemolchilarga etkazib berish va qabul qilish shartnomasi***

«26» yanvar 2022 y.

4/2-son

O'smat sh.

Nizom asosida faoliyat yurituvchi Baxmal tuman tibbiyot birlashmasi (keyingi o'rinlarda istemolchi deb ataladi) raxbari Gapparov Faxriddin Abdusalomovich bir tomondan xamda Nizom va 2021 yil 14- dekabda berilgan 01-19-52/9343-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi HUDUDGAZ JIZZAX (keyini o'rinlarda etkazib beruvchi deb ataladi) raxbari Gaybullaev Yo'ldosh Mannonovich, ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar

#### **I.Shartnoma predmeti**

1.1 Etkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Istemolchining kelishilgan buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyini o'rinlarda gaz deb ataladi) etkazib berish majburiyatini oladi. Istemolchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan xajmda gazni qabul qilib olish majburiyatini oladi xamda to'lovlarni belilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga oshiradi.

1.2 Etkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyixasiga muofiq gazdan foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek elektron gazni xisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda xisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda etkazib beradi.

1.3 Istemolchi etkazib beruvchiga tasdiqlangan meyorlarga (Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan maxsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat) nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan extiyojni taqdim etadi.

Istemolchi joriy yilning 15 iyul kuniga qadar kelgusi yilda istemol qilinishi taxmin qilinayotan gaz xajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4 Istemolchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha etkazib beriladigan gaz xajmi texnik shartlarda belgilangan bosim va xajmda 2022 yilda 99 242 kub.m narxi 660 so'mni tashkil qiladi, jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

I chorak 99 242 kub m

Yanvar 37 121

Fevral 31 818 kub m

Mart 30 303 kub m

II chorak ming \_\_\_\_\_ kub m

Aprél \_\_\_\_\_

May \_\_\_\_\_

Iyun \_\_\_\_\_

III chorak \_\_\_\_\_ kub m

Iyul \_\_\_\_\_

Avgust \_\_\_\_\_

Sentyabr \_\_\_\_\_

IV chorak \_\_\_\_\_ kub m

Etkazib beruvchi tomonidan to'liq xajmda ko'rsatish uchun magistral va gaz taqsimoti tarmoqlarining ishlashi ishdan chiqqan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277- son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega istemolchilarga 2022 yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal xajmi 99 242 kub metrni shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagilarni tashkil qiladi

Yanvar 37 121 kub m

Fevral 31 818 kub m

Mart 30 303 kub m

II chorak      ming kub m

  Aprel \_\_\_\_\_ May \_\_\_\_\_ Iyun \_\_\_\_\_

III chorak    ming kub m

  Iyul \_\_\_\_\_ Avgust \_\_\_\_\_ Sentyabr \_\_\_\_\_

IV chorak    \_\_\_\_\_ ming kub m

  Oktyabr \_\_\_\_\_ Noyabr \_\_\_\_\_ Dekabr \_\_\_\_\_

1.5 Agar istemolchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani takdim etmasa, Etkazib beruvchi tomonidan choraklar uchun ajratilgan tabiiy gaz xajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanadi.

1.6 Etkazib beruvchi istemolchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan xajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi mumkin. Istemolchi tomonidan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz xajmlari o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz taminoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda bunday xolat ortiqcha oladigan gaz miqdori deb xisoblanmaydi.

## II. Gazni etkazib berish shartlari

2.1 Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4 band) muddatlarda va xajmlarda xamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq tarzda tabiiy gazni etkazib beriladi.

2.2 Istemolchi etkazib beruvchidan 1.4 va 1.5-bandlariga asosan joriy oy uchun gaz istemolining sutkalik meyori doirasida gaz qabul qilib oladi. Shuningdek oy oxirida tuzilgan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3 Etkazib beruvchi istemolchiga 24 soat ichida gaz etkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgarganligi to'g'risida barcha usullar orqali Istemolchini xabardor qilishi shart.

Etkazib beruvchining avariya dispetcher xizmatlari telefon raqamlari

72-41-21-004

Istemolchining manzili va telefoni raqamlari

Baxmal tuman tibbiyot birlashmasi manzili: Baxmal tumani O'smat shaxarchasi Hamid Olimjon ko'chasi 17 Uy Tel: 72 412 12 64

2.4 Etkazib beruvchi istemolchini gaz etkazib berish qisqarishlariga qadar kamida 24 soat avval bu xaqda xabar qilishi shart. Magistral gaz quvurlarida yuz bergan avariya xolatlari bundan mustasno. Istemolchi xabardor qilingandan keyin gaz etkazib berish darhol qisqartiriladi yoki to'xtatiladi.

2.5 Magistral va taqsimlovchi gaz quvurlarining texnologik ish rejimlari buzilganda, shuningdek kuz-qish mavsumida ijtimoiy soxa obektlarini va axoli istemolchilarini bir maromda tabiiy gaz bilan taminlash maqsadida Etkazib

beruvchi Istemolchini o'g'oxlantirgan xolda gaz etkazib berishni cheklash va to'xtatib qo'yish xuquqiga ega. Istemolchi esa zaxira yoqilgi turlaridan foydalanishga o'tadi.

2.6 Istemolchi etkazib beruvchi bilan gaz etkazib berish –qabul qilish doirasida tezkor malumotlarni muntazam almashishni taminlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7 Istemolchi zaxira yoqilg'i turlaridan foydalanishni ko'zda tutishi va uni etarli miqdorda (3oydan kam bo'lmagan muddatga) shakllantirishi shart. Istemolchi etkazib beruvchining asoslangan talabi bilan tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq zaxira yoqilg'iga o'tishi va gazdan foydalanishni to'xtatishi lozim. Gaz etkazib berishning to'xtatilishi tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

2.8. Istemolchi o'ziga tegishli bo'lgan gaz tarmoqlari va ularda o'rnatilgan uskunalar GTP (Gaz taqsimlash punkti) gazdan foydalanish uskunalaridan soz xolda foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish xamda saqlash uchun javobgar xisoblanadi.

2.9 Istemolchining qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatilishi, rekonstruksiya qilinishi yoki tamirlanishi oqibatida gaz sarflash xajmi o'zarishiga olib kelgan xollarda Istemolchi Etkazib beruvchidan qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalarini o'rnatish va rekonstruksiya qilishga texnik shartlari olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10 Istemolchi va etkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgargan xollarda ular zudlik bilan bir- birini bu xaqda xabardor qilishi shart.

2.11 Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, uzatish, taqsimlash va istemol qilish rejimining yagona uzluksiz texnologik jarayonini xisobga olib tabiiy gazni ishlab chiqaruvchi va Etkazib beruvchining talablarini bajarish Istemolchilar uchun majburiy xisoblanadi.

### **III. ETKAZIB BERILGAN GAZNI XISOBGA OLISHNI TASHKIL ETISH**

3.1 Gazni xisobga olmasdan etkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.

3.2 Etkazib berilgan gaz miqdori gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan xisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki o'lchov kompleksi bo'yicha aniqlanadi xamda xar ikki tomon imzolaydigan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasi (Istemolchi balansida bo'lgan gaz tarmog'ining boshlanishi xisoblanib) Etkazib beruvchi va istemolchi o'rtasidagi tegishlilik bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'i bo'linishi nuqtasi xisoblanadi va unda xisoblash priborlari o'rnatilishi shart.

3.3 Birlik miqdori standart sharoitda 1 m<sup>3</sup> gaz olinadi: xarorat 20 S, bosim 101,325 kRa(760 mmHg) (GOST 2939-63 1.1 bandiga asosan ). Gaz xajmi gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitda azot va karbonat angidrit) qiymatlari bo'yicha tuzatiladi.

Gaz miqdori "O'zstandart" agentligining meyoriy xuquqiy xujjatlari talablariga muvofiq gaz miqdorini standart sharoitga avtomatik ravishda keltiradigan gazni xisoblash priborlari yordamida aniqlanadi.

3.4 Etkazib beruvchining yoki Istemolchining balansida bo'lgan gaz o'lchash priborlari va o'lchov kompleksi uning mulki xisoblanadi.

3.5 Istemolchi tomonidan gaz o'lchash priborlari va yoki o'lchov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va meyorlarga muvofiq amalga oshiriladi va Etkazib beruvchi bilan kelishiladi. Istemolchi tomonidan gaz o'lchash priborlari va yoki o'lchov kompleksi gaz istemolini xisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGXNAT-ASKUG) lariga ulanishi lozim.

3.6 Gaz o'lchash priborlari va o'lchov kompleksini o'rnatish va ishlatish amaldagi qoidalar va meyorlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.7 Gaz o'lchash priborlari va o'lchov kompleksi egasi uni ishlatish davomida O'zDst 8.030;2008 "YOqilg'i va energiya. Xisobga qo'yiladigan umumiy talablar" O'zDst 8.031;2008 "YOqilg'i va energiya. O'lchash priborlari bilan jixozlash va ularni ishlatish" davlat standartlari talablariga, shuningdek o'lchash priborlari ishlab chiqaruvchining talablariga rioya qilish.

3.8 Gaz o'lchash priborlari va yoki o'lchov komplekslarining metrologik va texnik tavsiflari amaldagi meyorlar va qoidalarga muvofiq bo'lishi kerak.

3.9 Gaz o'lchash priborlari va o'lchov komplekslari "O'zstandart" agentligining joriy qiyoslov ko'rigidan o'tkazilgan sertifikat va metrologik atestatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Gaz o'lchash priborlari va o'lchov komplekslarining qiyoslov ko'rigidan va metrologik atestatsiyadan o'tish davrini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Gaz o'lchash priborlari va o'lchov komplekslari egasi gaz o'lchash priborlarini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va o'lchov komplekslarini (va ularning tarkibiy qismlarini) "O'zstandart" agentligida metrologik atestatsiyadan o'tkazishining o'z vaqtida bajarilishi uchun masuldir.

3.10 Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi, kalibriash, torayish moslamasini almashtirish, tamirlash) gaz o'lchash priborlarini va o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish, texnik va ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlari va o'lchov kompleksining qismlarini echish o'rnatish uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi meyorlar va qoidalarga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

3.11 Rejalashtiriladigan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi, kalibriash, torayish moslamasini almashtirish, tamirlash) gaz o'lchash priborlarini va o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi meyorlar va qoidalarga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatish vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

Etkazib beruvchining vakilini gaz o'lchash priborlari va o'lchov kompleksining egasi chaqiradi.

3.12 Gaz o'lchash priborlarini va o'lchov komplekslarini modernizatsiya qilish, gaz o'lchash priborlarini almashtirish, gazni o'lchashning boshqa usullarini tanlash masalalari Etkazib beruvchi bilan kelishiladi.

3.13 Gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitidai zichlik azot va karbonat angdrit) gaz o'lchash priborlarining konfiguratsiyasiga kiritiladi.

Gaz o'lchash priborlarining egasi gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida gaz o'lchash priborini konfiguratsiyasiga kiritishni taminlaydi. Etkazib

beruvchi Istemolchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida etkazib berilishini taminlaydi.

3.14 Etkazib beruvchi o'zining tamg'alarini gaz o'lchash primborlariga va o'lchash kompleksining gaz xajmini o'lchashga tasir qiladigan qismlariga Istemolchi ishtirokida o'rnatadi va tegishli dalolatnoma tuziladi. O'rnatilgan tamg'alarning butligiga Istemolchi javobgardir.

3.15 Etkazib beruvchi istemolchining gaz o'lchash priborlari va o'lchov komplekslari va ularning tarkibiy qismlarining to'g'ri ishlatilishini kuzatish xuquqiga ega. SHu bilan birga Istemolchi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq Etkazib beruvchi vakillarining o'lchov priborlari va o'lchash komplekslariga to'siqsiz kirishini taminlaydi.

3.16 O'z.DSt 8.586(1-5)-2005 bo'yicha o'lchov kompleksi va o'lchov priborlari ishida g'ayritabiiy xolatlar yuzaga kelgan taqdirda O'z DSt 8.064:2017 bo'yicha gazning miqdori xisoblanadi (korrektirovka). O'lchash qurilmasi va o'lchash kompleksi faoliyatiga ruxsatsiz aralashish xolatlari bundan mustasno.

3.17 Olingan gaz uchun xisob kitob quyidagi xollarda tamg'alanmagan gazdan foydalanish uskunasi 24 soat davomida ishlab turishi xisob kitobidan amalga oshiriladi:

a) gazni xisobga olmagan xolda gaz istemoli-gazni xisoblash priborlari va gazni sarf qilish normasi bo'lmaganida gazni xisoblash priborini chetlab o'tgan xolda istemol qilish (noqonuniy baypas liniyalari ulanganda) oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan aniqlangan kungacha, lekin davo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

b) xisobga olish priborlarini ulash tartibi va sxemasi o'zgartirilganda oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan , lekin davo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

v) xisobga olish priborlari buzilganda (Xisobga olish priborlari buzilganligini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lganda)-shartnomaning 1.4 va 1.5 bandlarini inobatga olgan xolda bir xisob kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

g) xisobga olish priborlari mavjud bo'lmaganda qiyoslov ko'rigidan o'tkazish uchun echilganda xisobga olish priborlari echilgan kundan "O'zstandart" agentligidan qiyoslovdan o'tkazilib sertifikat olinib joyiga o'rnatilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

d) xisobga olish priborlarini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va o'lchov kompleksini metrologik atestatsiyadan o'tkazish muddati tugaganda -qiyoslov ko'rigidan metrologik atestatsiyadan o'tkazish muddati tugagan kundan qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik atestatsiya o'tkazish uchun echilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

e) Xisobga olish pribori yoki o'lchov kompleksining qismlariga o'rnatilgan tamg'alarning butligi buzilganda, oxirgi ko'rik yoki gaz taminoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab, lekin bir xisob kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

j) xisobga olish priborlarini o'zboshimchalik bilan echib qo'yilganda oxirgi ko'rik yoki gaz taminoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

z) gazni tarqatish tarmoqlarining texnologik rejimini buzadigan gaz quvurlarida yoki GTP larida asbob-uskunalar o'rnatilganda -oxirgi ko'rik yoki gaz taminoti

tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtda;

i) gaz xisoblash uskunasining konfiguratsiyasiga noqonuniy tarzda tashqi tasir ko'rsatgan xolda tabiiy gazni istemol qilish xolatlari aniqlanganda tashqi tasir ko'rsatgan kundan boshlab (agar aralashuv kunini va vaqtini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lsa), biroq davo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga;

k) xisobga olish priborlarining xotirasida saqlanadigan arxiv malumotlarini yo'qotish gaz o'lchashni avtomatlashtirilgan tizimdan xisobot oyida malumotlar olish imkoni bo'lmaganda yoki etkazib beruvchining operativ jurnallaridan olingan malumotlar bo'lmagan taqdirda (Xisob kitob uchun TGXNAT (ASKUG) tizimi joriy qilingan istemolchilarda xisobot davri uchun arxiv malumotlari mavjud bo'lmagan xollarda istemol qilingan tabiiy gaz xajmlari to'g'risidagi malumotlar TGXNAT tizimida qayd etilgan malumotlardan olinadi).

l) gaz istemol qilish xajmlari xisobga olish priborining ruxsat etilgan maksimal o'lchov chegarasidan ortiqcha bo'lganda plombalanmagan gaz jixozlaridan foydalanilgan gaz uchun xisob kitoblar oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo'lmaganda esa -gaz taminoti tashkiloti vakili tomonidan oxirgi marta borib ko'rilgan kundan amalga oshiriladi.

m) gazlashtirish xujjatlarini rasmiylashtirmasdan istemolchi tomonidan qo'shimcha gaz qurilmasi o'rnatish xolati aniqlanganda (qo'shimcha gaz anjomlarini o'rnatib olib foydalanilayotganlik fakti bo'yicha asoslantiruvchi xujjatlar mavjud bo'lmaganda) bir xisob kitob davriga

3.18 Istemolchining xisobga olish pribori gaz xajmini pastki chegarasi ostida sarflaganda gaz xajmini xisobga olish pribori yoki o'lchov kompleksining meyoriy texnik xujjatlarida ko'rsatilgan o'lchovining pastki chegarasida olinadi.

3.19 Etkazib beruvchi tomonidan etkazib beriladigan gaz xajmining ishonchliligiga tasir ko'rsatuvchi o'lchov komplekslari va xisoblash priborlarining ishlashi buzilgan xolatlar aniqlanganda etkazib beruvchi "O'zstandart" agentligi bo'linmalarida o'lchov komplekslari va gazni xisoblash priborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish xuquqiga ega.

Agar o'lchov komplekslari va xisoblash priborlari nosoz bo'lsa ekspertizadan o'tkazganlik uchun to'lovlar Istemolchi tomonidan, soz xolatda bo'lganda esa ekspertiza o'tkazilishini talab qilgan Taraf tomonidan amalga oshiriladi.

3.20 Agar xisobga olish pribori ishdan chiqqanda yoki xisobga olish priboridan gaz sizib chiqqan xolatlari aniqlangan taqdirda Istemolchi 24 soat ichida Etkazib beruvchiga bu xaqda xabar berishi shart. SHuningdek korxonadagi gaz ishlatadigan asbob- uskunalarini ishlash grafigini tuzishi va ishlamaydigan gaz asbob-uskunalarini Etkazib beruvchi bilan birgalikda o'chirib tashlanishini taminlashi shart.

3.21 Xisobga olish priborlarida gaz sizib chiqqan xolatlari aniqlangan taqdirda qayta xisob- kitoblar oxirgi ko'rik yoki gaz taminoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha , lekin davo muddatidan ko'p bo'lmagan davrda amalga oshiriladi. (O'z DSt 8.586 ga ko'ra gazni aniqlash tizimlari germetik xolatda bo'lishi kerak)

#### IV. ETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN XISOB KITOBNI AMALGA OSHIRISH

4.1 Istemolchi mazkur shartnoma asosida etkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2 Gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

4.3 Istemolchi xisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Etkazib beruvchining xisob raqamiga ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5 bandlarida ko'rsatilgan oylik gaz xajmi qiymatining 100 foiz summasini oldindan to'laydi.

Xisob kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin xisob kitobni 50 foiz oldindan xaq to'lash asosida amalga oshirish xoxishini bildirgan istemolchilar xisob kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib, etkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan xaq to'lash asosida xisob kitob qilish to'g'risida Etkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga xaqlidir. Bunday xolatlarda istemolchilar xisob kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin gaz taminoti tashkilotining xisob raqamiga tabiiy gaz etkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz xajmi qiymati summasining 50 foiz miqdorida oldindan xaq to'lashlari shart. Amalda istemol qilingan gaz xajmi uchun yakuniy xisob-kitob xisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4 Istemolchiga gaz oldindan to'lovlarsiz etkazib berilmaydi.

4.5 Oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda Istemolchiga gaz etkazib berilmaydi (strategik korxonalar va ijtimoiy axamiyatga ega istemolchilar bundan mustasno).

4.6 Istemolchi xar oying 10 sanasiga qadar avvalgi oyda istemol qilingan gaz uchun yakuniy xisob kitobni amalga oshirishi kerak.

4.7 Strategik va ijtimoiy axamiyatga ega istemolchilar xisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy xisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8 Tabiiy gazdan foydalanishda istemolchining aybi bilan tabiiy gaz etkazib berishga shartnomada ko'rsatiladigan xajmdan kam foydalanilgan taqdirda avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi. Ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda xisobga olinadi.

4.9 Istemolchi tomonidan tabiiy gaz etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilanganidan ko'p xajmda va gaz taminoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz olingan taqdirda Istemolchidan shartnomadagi xajmlardan ortiqcha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1.4 koeffitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda belgilangan tartibda xisoblash priborlarini almashtirish, tamirlash, xizmat ko'rsatish, tekshirish va sozligini monitoring qilish uchun echib olish, shuningdek istemolchiga aloqador bo'lmagan turli xil (elektr taminoti nosozligi, chaqmoq, qisqa tutashuv va x.k) dagi texnik nosozliklar aniqlanganligi sababli istemol qilingan tabiiy gaz xajmini o'rnatilgan gaz asbob-uskunalarini to'liq quvvati bo'yicha xisob kitob qilinishi natijasida shartnomadagi xajmlardan ortiq xajmlarni tashkil qilgan xolatlar bundan mustasno.

4.10 Tabiiy gaz uchun istemolchining qarzi mavjud bo'lgan taqdirda uning avans to'lovi xisobiga o'tkazilgan mablag'lari Istemolchini xabardor qilgan xolda qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida xisobga olinmaydi.

4.11 SHartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz qiymati o'z vaqtida to'lanmaganda, Istemolchi muddati o'tgan xar bir kun uchun muddati

o'tgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida,lekin muddati o'tan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12 Xisob-kitob oyida etkazib berilgan tabiiy gaz xajmi Etkazib beruvchi vakillari tomonidan gaz istemolini xisobga olish priborlaridan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGXNAT ga ulangan ,shuningdek,tabiiy gazni istemol qilishni xisobga olish priborlariga ega bo'lmagan va belgilangan meyorlar bo'yicha xisob-kitob qiladigan istemolchilar bundan mustasno) asosida ,keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar "Fossa" tizimiga kiritish ,shuningdek istemolchilar tomonidan gaz istemolini xisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini interaktiv xizmatlar vositalaridan foydalangan xolda kiritish orqali aniqlanadi.

4.13 SHartnomaning 4.12 bandiga asosan ko'rsatkich olingandan so'ng keyingi oyning 5 kuniga qadar Etkazib beruvchi tomonidan xisob kitob oyi uchun gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan istemolchiga elektron xisob faktura yuboriladi.

4.14 Etkazib beruvchi va istemolchi o'rtasidagi xisob-kitoblarning xaqqoniyligini taminlash uchun xisobot davrida gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi Istemolchida quyidagi texnik xujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni xisoblash pribori xotirasidan xisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv malumotlari;

b) istemolchiga taqdim etiladigan ,istemolchining bo'linish chegarasida bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQ lardagi texnologik yo'qotishlarning xajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi; Bunda istemolchi balansida bo'lgan gaz tarmoqlari va GTK dagi texnologik yo'qotishlar Istemolchi xisobiga olib boriladi.

4.15 Istemolchi oyning 7 kunidan kechiktirmasdan Etkazib beruvchidan xisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini qabul qilib oladi,imzolaydi va bir nusxasini Etkazib beruvchiga jo'natadi.Rasmiylashtirilgan gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan elektron xisob varaq faktura qabul qiladi.

4.16 Tabiiy gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni etirozlar bilan imzolash Istemolchini ko'rsatib o'tilgan gaz xajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi.Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan xisob kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'g'rida,malum qilib,so'ng dalolatnomaning bir nusxasini Etkazib beruvchi vakiliga taqdim qiladi.Ushbu masalani o'zaro xal etish imkoniyati bo'lmaganda,kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17 Istemolchidan debitor qarzlarni undirish Etkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18 Gaz uzib qo'yilgandan so'ng o'zboshimchalik bilan qayta ulanganda istemol qilingan gaz xajmi va uning qiymati gaz uzib quyilgan kundan boshlab ulangan gazdan foydalanish uskunalarining bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishlab turishi xisobidan aniqlanadi.

4.19 Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgargan taqdirda ,Etkazib beruvchi bu xaqdagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgarganda mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi.Istemol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida u qonuniy belgilangan tartibda kuchga kirgandan so'ng amalga oshiriladi.Bunda istemolchi

tabiiy gazning avans tariqasida to'langan xajmi uchun to'lov kunidan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilinadi.

## **V.Xuquqbuzarliklar va gazdan noqonuniy foydalanish uchun javobgarlik**

5.1 Gazdan foydalanishda Istemolchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17 va 3.18 bandlarida ko'rsatib o'tilgan xuquqbuzarlikka yo'l qo'yilishi Etkazib beruvchi va Istemolchi vakillari tomonidan imzolanadigan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2 Ushbu shartnomaning 5.1 bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq istemolchidan foydalanilgan gaz xajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3 Bunda ushbu shartnomaning 5.2 bandida ko'rsatilgan xolatlarda gaz xajmi qiymatining undirilishi Istemolchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## **VI.Tarmoqdan uzib qo'yish va qayta ulanish tartibi**

6.1 Istemolchida quyidagi xolatlarning mavjudligi xamda ushbu xolatlarning bartaraf etilguniga qadar gaz tarmoqlaridan uzib qo'yiladi:

- shartnoma majburiyatlari bajarilmaganida;
- Etkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunalari va xisobga olish qurilmalarini nazoratdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganida;

- foydalangan gaz uchun xisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;

- shartnomada belgilangan buyurtmalarga etarli miqdorda oldindan to'lovlar amalga oshirilmaganida;

- Etkazib beruvchining va "O'zneftgazinspeksiya"ning ko'rsatmalari bajarilmaganida;

- xisoblash priborlariga qasddan zarar etkazilganida,pribor ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti xarakterli amallar amalga oshirilgan xolatlarda;

- gazni xisobga olish priborlariga tashqi tasir ko'rsatishga xarakterli harakat qilish;

- gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki boshqa xukukbuzarliklar yoxud gazni talon-tarosh qilish xollari aniqlanganda.Bunda etkazib beruvchi gaz taminotining o'chirilishi natijasida etkazilgan moddiy zarar yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

6.2 Tarmoqqa qayta ulanishda amaldagi qonunchilikka muvofiq istemolchidan bazaviy xisoblash miqdorining o'n baravvari miqdorida xaq undiriladi.SHartnomaning 13.1 bandida ko'rsatilgan xollar bundan mustasno.

6.3 Gaz istemolini xisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGXNAT) lariga ulangan istemolchilarni masofadan qayta ulash uchun xaq undirilmaydi.

## VII. TARAFLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 7.1 Etkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

-o'ziga qarashli gaz tarmoqlarini soz xolatda saqlash va ularni o'z xisobidan tamirlash;

-O'z.gaz tarmoqlarining texnik xolatini va ulardan ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish;

-tabiiy gaz etkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'rida Istemolchini xabardor qilish;

-gaz xisoblash uskunalaridan olingan malumotlarni elektr malumotlarining barcha parametrlarini kamida uch yil mobaynida o'zida saqlanishini taminlash;

-SHartnomaning 3.17 va 4.18-bandlarida ko'rsatilgan xolatlar sodir etilganligi va ushbu xolatlar bartaraf etilguniga qadar tabiiy gaz taminotini qo'shimcha ogoxlantirishsiz tarmoqdan o'chirish;

-tabiiy gazning ruxsatsiz istemol qilinganligi gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-tarosh qilinganligi to'g'risida xuquqni muxofaza qilish organlarini xabardor qilish;

-istemolchiga gaz etkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni etkazib berish;

-qonunda nazarda tutilgan tartibda manapoliyaga qarshi davlat organining taqdimnomasiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;

- Etkazib beruvchi va vakolatli davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

-texnik xizmat ko'rsatish shartlariga muvofiq istemolchilarning ichki gaz tarmoqlari gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmati ko'rsatish;

-tabiiy gaz sizib chiqishida darxol;

-ovqat tayyorlash uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida –bir kun davomida;

-issitish mavsumi va isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaqtda)-ikki kun davomida;

-gazdan foydalanish uskunalarini 5 sutka muddat ichida almashtirish;

Etkazib beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga xam ega bo'lishi mumkin;

### 7.2 Etkazib beruvchi quyidagi xuquqlarga ega:

-texnik zaruriyatga ko'ra Istemolchini belgilangan tartibda xabardor qilgan xolda tabiiy gazni etkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;

-gaz istemoli tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish xolatlari aniqlanganda ularni belgilangan tartibda gaz tarmog'idan uzib qo'yish;

-Istemolchilardan gazdan foydalanish qoidalari va etkazib berish shartnomasi talablariga rioya etishni talab qilish;

- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasini ijro qilishdan qonun xujjatlariga muvofiq bir tomonlama voz kechish;

-gaz tarmoqlarida avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish, zaruriyati yuzaga kelganda Istemolchi bilan kelishmasdan va uni ogoxlantirmasdan xamda zudlik bilan xabardor qilgan xolda tabiiy gazni etkazib berishni to'xtatish yoki cheklash;

-ushbu shartnomada nazarda tutilgan xollarda aniqlangan xuquqbuzarliklar bartaraf etilguniga qadar avvaldan ogoxlantirmagan xolda gaz etkazib berishni to'xtatish;

-tabiiy gaz etkazib berish shartnomasini bir tomonlama bekor qilish;

7.3. Istemolchi quyidagilarga majbur:

-xisobot oyida tabiiy gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi va xisob varaqasini rasmiylashtirish uchun xar oyning 5 sanasigacha Etkazib beruvchiga elektron gaz xisobdonini arxiv malumotlari (raspechatka) yoki gazni xisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini taqdim etish.

-gazdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish;

-gaz xo'jaligi gaz quvurlari va uskunalarini texnik jixatdan soz xolatda saqlash;

-gaz tarmoqlarida yoki gazdan foydalanish uskunasida vujudga kelgan tabiiy gaz sizib chiqishi xolati xaqida gaz taminoti tashkiloti dispecherlik xizmatlarini zudlik bilan xabardor qilish;

-o'zining gaz tarmoqlari daxlsizligini taminlash va extimoli bo'lgan ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash maqsadida ularni va ulardagi uskunalarni muntazam ravishda ko'zdan kechirib chiqish;

-gaz taminoti tashkilotlari gaz tarmoqlari sertifikatlanmagan gazlashtirish loyixasiga (LTX) muofiq bo'lmagan gazdan foydalanish uskunalarining ulanishiga yo'l qo'ymaslik;

-gaz etkazib beruvchi vakillari va "O'zneftgazinspeksiya" xodimlarining (tegishli ruxsatnoma ko'rsatilgan taqdirda) tabiiy gazni istemol qilishni xisobga olish priborlarini va gazdan foydalanish uskunasini kunning istalgan vaqtida erkin ko'zdan kechirishini taminlash;

-gazdan foydalanish uskunalaridagi nosozliklarni (bunday turdagi ishlarni bajarish xuquqiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan brigadalar yoki xodim yordamida) bartaraf etish;

-tabiiy gaz istemolini xisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xarakatlarni amalga oshirmaslik, ularning qasddan buzulishiga yo'l qo'ymaslik va o'rnatilgan tang'alarning butunligini taminlash;

-tabiiy gaz istemolini xisobga olish priborlari ishidagi nosozliklar aniqlangan taqdirda gaz taminoti tashkilotini o'zi uchun qulay shakida darxol xabardor qilish;

-gaz tarmog'i bo'linish chegarasida tabiiy gaz sarfi bo'yicha malumotlarni masofadan olish imkoniyatini beruvchi gaz istemolini xisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan (TXNAT-ASKUG) tizimiga ulangan xisoblash priborlarini Istemolchi tomonidan o'rnatish;

7.4 Istemolchi etkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish xuquqiga ega:

-etkazib berilgan tabiiy gazning aniqlangan xajmiga va parametrlariga norozi bo'lgan taqdirda Etkazib beruvchining tabiiy gazni istemolini xisobga olish priborlari ishlashining ishonchliligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish;

- tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlarda ko'zda tutilgan sifatda va etkazib berish rejimiga rioya qilgan xolda uzatilishi;

-tabiiy gazni etkazib berish shartnomasi bekor qilinganda foydalanilmagan gaz xajmi uchun to'langan summamni qaytarish;

-tabiiy gazni etkazib berish shartnomasini qonun xujjatlariga muofiq bir tomonlama bekor qilish;

-tabiiy gaz etkazib berish to'xtatilganda zararni qoplashni talab qilish (shartnomaning 2.5 va 6.1 bandlari bundan mustasno);

-gaz etkazib berishni vaqtincha to'xtatishni;

Istemolchi qonunchilik xujjatlarida ko'rsatilgan boshqa xuquqlarga ega bo'lishi mumkin.

## VIII.TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

8.1 Etkazib beruvchi Istemolchiga gaz etkazib berish shartnomasiga asosan gaz etkazib bermagan yoki to'liq etkazib bermaganligi oqibatida etkaziladigan moddiy zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

Etkazib beruvchi gazni etkazib bermaganlik yoki to'liq etkazib bermaganlik uchun quyidagi xollarda javobgar xisoblanmaydi:

a) Istemolchi tomonidan gaz taminoti tarmoqlariga qo'shimcha gazdan foydalanish uskunasi ruxsatsiz ulash xolati aniqlanganda;

b) foydalanilgan gaz uchun to'lov amalga oshirilmaganda;

v) qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xollarda;

g) Istemolchi tomonidan shartnoma talablariga amal qilinmaganida;

d) mazkur shartnomaning 2.5 va 6.1 bandlarida ko'rsatilgan xollarda;

8.2 Etkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi natijasida Istemolchiga moddiy zarar etkazilganda, Etkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan bazaviy xisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravari miqdorigacha jarima qo'llaniladi.

8.3 SHartnomada ko'rsatilgan xajmdan kam xajmda gaz etkazib berilgan taqdirda etkazib beruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi. Quyidagi xollar bundan mustasno:

a) fors-major xolatlar;

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida avariya xolatlar yuz berganda;

v) qish davrida vaqtincha gaz etkazib berish cheklanganida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz etkazib berish tarmog'idan uzib qo'yilmaydigan obektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalaridan tashqari);

g) shartnoma asosida Istemolchi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilmaganida;

8.4 Etkazib berilgan tabiiy gazning sifati shartnoma yoki normativ xujjatlar talablariga mos kelmaganida Istemolchi gaz qabul qilish yoki uning uchun xaq to'lashni rad etganda Etkazib beruvchidan etkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz xajmi qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'lashni talab qilish xuquqiga ega. Agar gaz qiymati to'langan bo'lsa Istemolchi etkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summani qaytarishni talab qilish xuquqiga ega.

8.5 Etkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan xajmlardan kam gaz etkazib berilganda Etkazib beruvchi Istemolchiga muddati o'tgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan summasining 0.5 foizi miqdorida, biroq etkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6 SHartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz xaqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Istemolchi muddati o'tgan xar bir kun muddati o'tgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

### **IX.KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR**

9.1 Ushbu shartnomaning xar bir taraflari bir biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2 Istemolchi Etkazib beruvchiga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni xam o'z zimmasiga oladi: SHartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari) istemolchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida xarakat qilib Etkazib beruvchining korrupsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga rioya qiladi.

### **X. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI**

10.1 Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qoidalarga ko'ra ularni sudgacha xal etish choralarini ko'radilar.

10.2 Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni xal etish uchun talablar belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi tegishli sudga murojaat qilishga xaqlidir.

10.3 SHartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Qonunda belgilangan xolatlar bundan mutasno.

### **XI. FORS MAJOR XOLATLAR**

11.1 Tomonlar:

a) tabiiy ofatlar;  
b) magistral gaz quvurlari va gaz tarmoqlarida gazni qayta ishlash korxonalarini va gaz ishlab chiqarish joylarida kutilmagan avariya xolatlari yuzaga kelganda, shuningdek engib bo'lmas kuchlar tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar, xususan sel, yomg'ir, suv toshqini, yong'in chiqishi, er qimirlashi, virus tarqalishi va pandemiya davrida xamda Xukumat qaroriga asosan taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoni bo'lmay qolganida javobgarlikka jalb etilmasdan gaz etkazib berishni to'xtatish, qisqartirish yoki munosabatlarni to'xtatish xuquqiga ega bo'ladilar.

11.2 Fors major xolatlar yuzaga kelgan taqdirda taraflar xar qanday aloqa vositasi yordamida bir biriga xabar qilishi kerak.

11.3 Agar ko'rsatilgan xolatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomani kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

### **XII.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

12.1 Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi xamda taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

12.2 Byudjet tashkilotlari uchun shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son qaroriga asosan G'aznachilik

bo'limi tomonidan majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.3 SHartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha bo'lgan muddatga tuzilgan. SHartnomaning muddati tugaganidan keyin agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan xisoblanadi.

Byudjet tashkilotlari uchun shartnoma bir yilga tuziladi. SHartnoma muddati tugaganidan so'ng agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan xisoblanadi. Byudjetdan mablag' oluvchilar uchun shartnoma har yili yili 31 dekabr sanasiga amal qilishlari lozim.

12.4 Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha davolari davo qabul qilingan kundan boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

### XIII.YAKUNIY QOIDALAR

13.1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18 iyundagi "Tabiiy gaz va elektr energiyasi sotish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi №6010-son Farmoni qabul qilishi munosabati bilan tabiiy gazni ulgurji istemolchilarga etkazib berish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xuzuridagi Majburiy ijro byurosining (BYURO) barcha vakolatlari 2022 yilning 31 dekabriga qadar amalda bo'ladi.

13.2 Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkala nusxasi xam bir xil yuridik kuchga ega.

### XIV.TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI:

"HUDUDGAZ JIZZAX GTF	Baxmal tuman tibbiyot birlashmasi
Manzili:Jizzax ch J.Azimov -3	Manzili:Baxmal tuman O'smat sh
Tel/faks:222- 39-77	Tel/faks: 72-412-12-64
h/r: 22634000905113960337	sh/hr: 100022860082047073101054001
INN:306605769	INN: 201774004
OKONX:35220	OKONX:91511
Bank: O'sanoatqurulishbank Rakat filiali	<b>Moliya Vazirligi G'aznachiligi</b>
MFO:00435	G'azna x/v : <b>23402000300100001010</b>
	Bank : Markaziy bank Toshkent sh XKKM
	MFO : <b>00014</b> INN: 201122919



 Gaybullaev Y.

 M.O. F.Gapparov

